

20-May, 2026-yil

**YANGI O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI FATVO
TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI**

Xaydarov M

O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi f.f.d.(phd) dotsent

Oxunjonov Sh

O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining diniy sohada, xususan fatvo berish tizimida qo‘llanilishining nazariy, huquqiy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sun’iy intellektning diniy axborotlarni tezkor qayta ishlash, foydalanuvchilarga qulay xizmat ko‘rsatish hamda elektron fatvo tizimlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi fatvo tizimlari bilan bog‘liq muammolar, jumladan diniy matnlarni noto‘g‘ri talqin qilish, algoritmik xatoliklar, ma‘lumotlarning ishonchliligi, kiberxavfsizlik va huquqiy javobgarlik masalalari tahlil qilindi. Xalqaro tajriba va O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida ushbu texnologiyalarni diniy sohada qo‘llash istiqbollari yoritildi. Tadqiqot natijasida sun’iy intellekt diniy sohada mustaqil muftiy sifatida emas, balki diniy mutaxassislar faoliyatiga yordam beruvchi axborot-maslahat vositasi sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berildi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, fatvo, diniy-huquqiy tizim, raqamli texnologiyalar, fiqh, shar‘iy nazorat, chatbot, axborot xavfsizligi, huquqiy javobgarlik, raqamli transformatsiya.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы теоретические, правовые и практические аспекты применения технологий искусственного интеллекта в религиозной сфере, в частности в системе вынесения фетв. В ходе исследования изучены возможности искусственного интеллекта по быстрой обработке религиозной информации, предоставлению удобных услуг пользователям и развитию электронных систем фетв. Также рассмотрены проблемы, связанные с системами фетв на основе искусственного интеллекта, включая неправильное толкование религиозных текстов, алгоритмические ошибки, достоверность информации, кибербезопасность и вопросы правовой ответственности. На основе международного опыта и нормативно-правовых документов, принятых в Узбекистане в сфере развития искусственного интеллекта, освещены перспективы применения данных технологий в религиозной сфере. По результатам исследования обосновано, что искусственный интеллект не может полностью заменить муфтия, а должен использоваться как информационно-консультативный инструмент, помогающий деятельности религиозных специалистов.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, фетва, религиозно-правовая система, цифровые технологии, фикх, шариатский контроль, чат-бот,*

Abstract: *This article analyzes the theoretical, legal, and practical aspects of applying artificial intelligence technologies in the religious sphere, particularly in the fatwa issuance system. The study examines the capabilities of artificial intelligence in rapidly processing religious information, providing convenient services to users, and developing electronic fatwa systems. In addition, the research highlights several challenges related to AI-based fatwa systems, including misinterpretation of religious texts, algorithmic errors, reliability of information, cybersecurity, and legal responsibility issues. Based on international experience and the legal framework adopted in Uzbekistan for the development of artificial intelligence technologies, the prospects for implementing AI in the religious sector are discussed. The study concludes that artificial intelligence cannot fully replace religious scholars or muftis, but should instead function as an informational and advisory tool supporting the activities of qualified religious experts.*

Keywords: *artificial intelligence, fatwa, religious-legal system, digital technologies, fiqh, Sharia supervision, chatbot, information security, legal responsibility, digital transformation.*

KIRISH

Rivojlanayotgan va tez sur’atlarda o‘zgarayotgan xalqaro miqyosdagi jarayonlar Yangi O‘zbekistonning strategik yo‘nalishlarini aniq belgilab olish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda sifatli xizmatlar ko‘rsatish, tezkor jarayonlarni yo‘lga qo‘yish hamda ochiq va shaffof boshqaruvni ta‘minlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida sun’iy intellekt texnologiyalari inson hayotining barcha sohalariga jadal kirib bormoqda. Tibbiyot, iqtisodiyot, ta‘lim, sanoat, sud-huquq tizimi va davlat boshqaruvi kabi yo‘nalishlarda sun’iy intellektdan foydalanish ko‘lami kengayib, u jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida insonlar turli xizmatlardan tezkor va qulay foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining diniy sohada, xususan fatvo berish tizimida qo‘llanilishi ham dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Islom dinida fatvo musulmonlarning kundalik hayoti, ibodatlari, ijtimoiy munosabatlari va huquqiy masalalarida muhim o‘rin tutadi. Fatvo chiqarish jarayoni Qur‘on, hadis, ijmo‘ va qiyos kabi shar‘iy manbalarga asoslangan holda amalga oshiriladi hamda muftiydan chuqur ilmiy bilim, tajriba va mas‘uliyat talab etadi. Hozirgi kunda internet tarmoqlari, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi chatbotlarning keng tarqalishi natijasida insonlar diniy savollariga javobni raqamli platformalar orqali olishga tobora ko‘proq murojaat qilmoqda. Bu esa sun’iy intellekt orqali fatvo berish tizimlarining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, sun’iy intellekt texnologiyalari diniy sohada tezkorlik va qulaylik yaratishi bilan birga, ayrim murakkab diniy-huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, sun’iy intellekt tomonidan berilgan fatvolarning ishonchliligi, shar’iy manbalarga mosligi, noto‘g‘ri yoki ekstremistik mazmundagi ma’lumotlar tarqalishi, algoritmik xatoliklar hamda diniy qarorlar uchun javobgarlik masalalari bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt inson tafakkuri, fiqhiy ijtihod va diniy mulohazalarni to‘liq almashtira olmasligi ushbu masalaning murakkabligini yanada oshirmoqda.

Mavzuning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, sun’iy intellekt va fatvo tizimi o‘rtasidagi munosabatlar diniy, huquqiy va texnologik jihatdan kompleks tadqiqotni talab etadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar sun’iy intellekt texnologiyalarining diniy sohadagi imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash, ularni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy tizimga moslashtirish orqali zamonaviy diniy axborot platformalarini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PQ-358-son qarori “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori mamlakatda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishning muhim huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur qaror ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, O‘zbekistonni sun’iy intellektdan foydalanuvchi yetakchi davlatlar qatoriga olib chiqish hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan.

Qarorga muvofiq, sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

1. sun’iy intellektni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani shakllantirish, standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash;
2. ma’lumotlarni qayta ishlash va sun’iy intellektga asoslangan loyihalarni amalga oshirish uchun zamonaviy texnik infratuzilmani yaratish;
3. aholining sun’iy intellekt bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2025 yildagi PF-140-son farmoni sud-huquq tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni jadallashtirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biri bo‘ldi. Ushbu farmonda quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

1. sud tizimini raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish;
2. Oliy sud, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan “Raqamli sud” konsepsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish;
3. Toshkent shahrida tajriba tariqasida iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy nizolarni ko‘rishga mo‘ljallangan zamonaviy raqamli sud majlisi zallarini tashkil etish.

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-May, 2026-yil

O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida mamlakatni mintaqaviy IT-HUBga aylantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu maqsadda barcha hududlarda IT-parklar tashkil etildi, raqamli texnologiyalarni o‘rganish va bu sohada faoliyat yuritish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Internet tezligi va qamrovi oshirildi hamda minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Bugungi kunda sun‘iy intellekt texnologiyalarini turli sohalarda qo‘llash ko‘lami kengayib bormoqda. Ushbu texnologiyalar asosida yigirmadan ortiq loyiha ishga tushirilgan bo‘lib, iqtisodiyot tarmoqlari va yirik korxonalar uchun yana o‘nlab loyihalar ishlab chiqilgan. Natijada O‘zbekiston sun‘iy intellektga tayyorgarlik bo‘yicha xalqaro reytinglarda yuqori pog‘onalarga ko‘tarilmoqda.

PQ-358-son qaroriga muvofiq, 2030-yilgacha quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish rejalashtirilgan:

Ko‘rsatkich	2026-yil	2028-yil	2030-yil
SI yo‘nalishidagi ilmiy laboratoriyalar	6 ta	8 ta	10 ta
SI bo‘yicha ilmiy darajali o‘qituvchilar PhD, DSc	20 nafar	25 nafar	40 nafar
Government AI Readiness Index da O‘zbekiston o‘rni	75-o‘rin	65-o‘rin	50-o‘rin

Sun‘iy intellektga tayyorgarlik indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 2024-yilda 53,45 ball bilan dunyoda 70-o‘rinni egallab, Markaziy Osiyoda yetakchi o‘ringa chiqdi. Bu 2020-yilga nisbatan sezilarli o‘sish bo‘lib, o‘sha davrda mamlakat 37,17 ball bilan 95-o‘rinda qayd etilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.10.2025 yildagi PF-189-son farmoni mamlakatda sun‘iy intellekt tizimini shakllantirish va uni huquqiy jihatdan tartibga solishning navbatdagi muhim bosqichi bo‘ldi. Ushbu farmon davlat boshqaruvi, elektron tijorat, moliya bozori, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa yo‘nalishlarda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning yagona mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur hujjat sun‘iy intellekt bilan bog‘liq jarayonlarda aniq huquqiy talablarni belgilash, xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish, ekspertiza tizimini joriy etish hamda mas‘uliyat mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Shuningdek, farmon yoshlar va startaplar uchun yangi imkoniyatlar yaratish hamda raqamli transformatsiyani izchil davom ettirishga xizmat qilmoqda.

Sud-huquq tizimida ham sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tobora kengaymoqda. Hujjatlarni qayta ishlash, arizalarni avtomatik qabul qilish, takroriy jarayonlarni tezlashtirish, statistik tahlillarni amalga oshirish hamda fuqarolarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishda ushbu texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada xizmat ko‘rsatish muddati qisqarib, davlat organlarining murakkab

20-May, 2026-yil

huquqiy masalalarga ko‘proq e‘tibor qaratishiga imkon yaratilmoqda. Shu bilan birga, huquqiy javobgarlik va yakuniy qaror qabul qilish mas‘uliyati inson zimmasida qolishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining 21.01.2026 yildagi O‘RQ-1115-son qonuni bilan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunga bir qator qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu qonun:

1. sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning umumiy huquqiy asoslarini belgilash;

2. ushbu sohadagi vakolatli davlat organlarining vakolatlarini aniqlashtirishga qaratilgan.

Qonunga ko‘ra, sun‘iy intellekt — inson bilim va ko‘nikmalariga taqlid qiluvchi, mustaqil o‘rganish, qaror qabul qilish hamda aniq vazifalarni bajarishda inson tafakkuriga yaqin natijalarni hosil qiluvchi texnologik yechimlar majmui hisoblanadi.

Shuningdek, inson huquq va erkinliklariga daxldor bo‘lgan yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda faqat sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan axborot tizimlari xulosalariga to‘liq tayanish mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan.

Umuman olganda, mazkur qonunchilik hujjatlari sun‘iy intellekt rivojlanishini cheklashga emas, balki uni xavfsiz va samarali qo‘llashning huquqiy chegaralarini belgilashga xizmat qiladi. Natijada inson nazorati, shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi va fuqarolar huquqlarining ustuvorligi ta‘minlanadigan zamonaviy normativ-huquqiy model shakllanmoqda.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Fatvo markazining sun‘iy intellekt tizimidan foydalanish imkoniyatlari.

Bugungi kunda O‘zbekistonda sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, sud-huquq tizimi, ta‘lim va ijtimoiy sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sun‘iy intellekt texnologiyalaridan diniy-ma‘rifiy yo‘nalishlarda ham foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Fatvo markazi faoliyatida sun‘iy intellekt asosidagi tizimlarni joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda internet va mobil texnologiyalarning rivojlanishi natijasida aholining diniy savollarga tezkor javob olishga bo‘lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Fuqarolar ko‘pincha ibodat, nikoh, tijorat, meros, kundalik muomala va boshqa diniy-huquqiy masalalar bo‘yicha onlayn tarzda maslahat olishga intilmoqda. Natijada fatvo markazlari va diniy tashkilotlarga murojaatlar soni keskin ko‘paymoqda. Bunday sharoitda sun‘iy intellekt asosidagi “virtual fatvo” tizimlari diniy xizmatlarni yanada qulay va samarali tashkil etishda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ayrim musulmon davlatlari sun‘iy intellekt texnologiyalarini diniy sohada amaliyotga tatbiq etishni boshlagan. Jumladan, Birlashgan

Arab Amirligi Dubay shahridagi Islom ishlari va xayriya faoliyati departamenti tomonidan “Virtual Ifta” deb nomlangan sun’iy intellekt dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim 2019-yildan boshlab ibodat va kundalik diniy masalalar bo‘yicha yuzlab savollarga avtomatik javob bera boshlagan. Departament Fatvo bo‘limi rahbarining ta’kidlashicha, mazkur tizim an’anaviy yuzma-yuz yoki telefon orqali beriladigan javoblarning muqobil shakli sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa diniy xizmatlarning tezkorligini oshirish, murojaatlarni qisqartirish va foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratishga xizmat qilmoqda.

Shunga o‘xshash tizimni O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Fatvo markazi faoliyatida ham joriy etish mumkin. Bunda sun’iy intellekt asosidagi yordamchi platforma oddiy va tez-tez takrorlanadigan savollarga avtomatik tarzda javob berishi mumkin bo‘ladi. Natijada diniy ulamolar va mutaxassislarning vaqtini tejash, murakkab masalalarni chuqurroq o‘rganish hamda aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyati kengayadi.

Misrning Dar al-Ifta Al-Misriya muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan “FatwaPro” tizimi ham sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning muvaffaqiyatli namunalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tizimda sun’iy intellekt avvalgi fatvolar bazasi va tasdiqlangan fiqhiy manbalarga asoslanib ishlaydi. Eng muhimi, tizim ochiq internetdagi ishonchsiz ma’lumotlardan emas, balki maxsus nazorat qilingan ichki ma’lumotlar bazasidan foydalanadi. Bu esa noto‘g‘ri yoki ekstremistik mazmundagi diniy ma’lumotlarning oldini olishga yordam beradi.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Fatvo markazida ham yopiq server va maxsus data-markazlar tashkil etish orqali sun’iy intellekt tizimining faqat ishonchli fatvolar, Qur’on tafsirlari, hadis manbalari va fiqhiy adabiyotlardan foydalanishini ta’minlash mumkin. Bunday yondashuv sun’iy intellekt tizimining noto‘g‘ri yoki tekshirilmagan ma’lumotlarga murojaat qilish xavfini kamaytiradi. Shu bilan birga, tizim foydalanuvchilarning savollarini tahlil qilib, ilgari chiqarilgan fatvolar bazasidan eng mos javoblarni taqdim etishi mumkin bo‘ladi.

Sun’iy intellekt asosidagi fatvo tizimini joriy etishda uch bosqichli nazorat modelini qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchi bosqichda sun’iy intellekt tizimi foydalanuvchi savolini tahlil qiladi va mavjud fatvolar bazasi asosida dastlabki javob loyihasini tayyorlaydi. Ikkinchi bosqichda Islom fiqhi, qiyosiy fiqh va shar’iy ilmlar bo‘yicha malakali olimlar ushbu javoblarni ilmiy jihatdan tekshiradi hamda ularning shar’iy asoslanganligini baholaydi. Uchinchi bosqichda esa fatvo ishlari bo‘yicha maxsus nazoratchilar va mutaxassislar yakuniy ekspertiza o‘tkazib, fatvoning to‘g‘riligi va ishonchliligini tasdiqlaydi. Murakkab va zamonaviy fiqhiy masalalar esa muftiylar tomonidan alohida muhokama qilinadi.

Mazkur model bir vaqtning o‘zida tezkorlik, qulaylik va ishonchlilikni ta’minlash imkonini beradi. Sun’iy intellekt oddiy va takroriy savollarga tez javob berar ekan, murakkab masalalarda inson omili va shar’iy nazorat saqlanib qoladi. Bu esa diniy qarorlarning sifatini oshirish bilan birga, noto‘g‘ri fatvolar chiqarilishining oldini olishga xizmat qiladi.

20-May, 2026-yil

Bugungi kunda O‘zbekistonda sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun zarur siyosiy va texnik sharoitlar yaratilmoqda. 2025-yil 21-oktabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishida sun‘iy intellektni davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tarmoqlariga jadal joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Davlat rahbari sun‘iy intellekt insoniyatni yangi sivilizatsiya bosqichiga olib kirayotganini ta’kidlab, superkompyuterlar va data-markazlar sonini ko‘paytirish zarurligini qayd etdi. Shu maqsadda zamonaviy texnologik infratuzilmani rivojlantirish uchun katta mablag‘lar ajratilmoqda.

Mazkur imkoniyatlar diniy sohada ham sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Fatvo markazi huzurida maxsus AI platformasi yaratish orqali elektron fatvo bazasi, onlayn maslahat tizimi va mobil ilovalarni rivojlantirish mumkin. Bu esa nafaqat diniy xizmatlar sifatini oshiradi, balki yoshlarning internetdagi ishonchsiz diniy manbalarga murojaat qilishining oldini olishga ham yordam beradi.

Shu bilan birga, sun‘iy intellekt asosidagi diniy tizimlarni joriy etishda ayrim ehtiyot choralari ham amal qilish zarur. Avvalo, sun‘iy intellekt mustaqil muftiy sifatida emas, balki yordamchi axborot-maslahat vositasi sifatida faoliyat yuritishi kerak. Chunki fatvo chiqarish jarayoni faqat texnik ma’lumotlarni qayta ishlash emas, balki fiqhiy tafakkur, ijtihod, zamonaviy voqelikni anglash va axloqiy mas’uliyatni ham talab qiladi. Shuningdek, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va diniy ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash masalalari ustuvor vazifa bo‘lib qolishi zarur.

Umuman olganda, O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Fatvo markazida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish diniy xizmatlarni zamonaviylashtirish, murojaatlarni tezkor ko‘rib chiqish, aholi uchun qulaylik yaratish hamda diniy-ma’rifiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Xalqaro tajriba va milliy imkoniyatlar shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy intellektni shar‘iy nazorat va inson omili asosida oqilona qo‘llash diniy sohada raqamli transformatsiyaning muhim bosqichiga aylanishi mumkin.

XULOSA.

Mazkur tadqiqot davomida sun‘iy intellekt texnologiyalarining diniy sohada, xususan fatvo berish tizimida qo‘llanilishining nazariy, huquqiy va amaliy jihatlari kompleks ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun‘iy intellekt texnologiyalari zamonaviy jamiyatda axborot almashinuvi, xizmat ko‘rsatish va ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. Shu bilan birga, diniy sohada ham ushbu texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, internet tarmoqlari va mobil ilovalarning keng rivojlanishi natijasida foydalanuvchilarning diniy savollarga tezkor javob olishga bo‘lgan talabi kuchaymoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sun‘iy intellekt asosidagi tizimlar diniy xizmatlarning samaradorligini oshirish, foydalanuvchilarga qulaylik yaratish hamda mavjud fatvolarni tezkor tahlil qilish imkoniyatiga ega. Xalqaro tajriba ham ayrim musulmon davlatlari va diniy markazlarda AI texnologiyalaridan maslahat va axborot beruvchi vosita sifatida

20-May, 2026-yil

foydalanish amaliyoti shakllanayotganini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonda ham sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va ularni turli sohalarga joriy etish bo‘yicha muhim huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Biroq tadqiqot davomida sun‘iy intellekt orqali fatvo berish tizimlari bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, sun‘iy intellekt diniy matnlarning chuqur shar‘iy va fiqhiy mazmunini to‘liq anglay olmasligi, noto‘g‘ri yoki umumlashtirilgan xulosalar chiqarishi ehtimoli mavjud. Shuningdek, diniy ma‘lumotlarning ishonchliligi, algoritmik xatoliklar, ekstremistik mazmundagi axborotlar tarqalishi, shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi hamda huquqiy javobgarlik masalalari dolzarb muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta‘kidlash mumkinki, sun‘iy intellekt texnologiyalari diniy sohada inson omilini to‘liq almashtira olmaydi. Fatvo chiqarish jarayoni faqat ma‘lumotlarni qayta ishlash bilan cheklanmay, chuqur diniy bilim, fiqhiy tafakkur, axloqiy mas‘uliyat va zamonaviy ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri baholashni talab qiladi. Shu sababli sun‘iy intellekt tizimlari mustaqil muftiy sifatida emas, balki diniy mutaxassislar faoliyatiga yordam beruvchi axborot-maslahat vositasi sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, sun‘iy intellekt asosidagi diniy platformalarni rivojlantirishda shar‘iy nazorat, axborot xavfsizligi va huquqiy tartibga solish tamoyillariga qat‘iy amal qilish zarur. Diniy ma‘lumotlar bazasini ishonchli manbalar asosida shakllantirish, diniy va texnologik mutaxassislar hamkorligini kuchaytirish hamda foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish ushbu sohani rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, sun‘iy intellekt texnologiyalaridan oqilona va nazorat ostida foydalanish diniy xizmatlar sifatini oshirish, aholiga qulaylik yaratish va zamonaviy raqamli tizimlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, inson tafakkuri, shar‘iy ijtihod va huquqiy javobgarlik har qanday holatda ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son. – www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.10.2025 yildagi PF-189-son. – <https://lex.uz/>

14. Kalandarov P.I. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish: darslik. – Toshkent: TIQXMMI, 2021. – 350 b.

15. Sultanov R.O., Matyakubov K.K. Robototexnika asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Nihol print, 2023. – 320 b.

16. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo‘nalish va kitoblar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2022. – 400 b.

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-May, 2026-yil

17. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2012. – 500 b.
18. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – 500 b.
19. Islom huquqshunosligi (Fiqh): o‘quv qo‘llanma / J. Toshqulov va boshq. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2014. – 350 b.
20. Razzoqova M. Mavlono Ya’qub Charxiy (ilmiy merosi). – Toshkent: Muharrir, 2013. – 300 b.
21. Haydarov M.M. Zamonaviy fiqhiy masalalar: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2024. – 350 b.
22. Abdulvahhob Xallov. Usulul fiqh. – Toshkent: Adolat, 1999. – 400 b.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul fiqh. – Toshkent: Sharq, 2010. – 500 b.
24. Abdulhamid Tursun. Ijtihod nima? // Hidoyat jurnali, 2008. – 300 b.